# OILAVIY MUNOSABATLAR DIAGNOSTIKASINING O'ZIGA XOSLIGI

**Ergasheva Moxina Narzulla qizi-O'zMU psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistri**

**Annotatsiya**:Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning sharq mutaffakkirlari tomonidan o'rganilganligi, qolaversa oila-nikoh munosabatlari to'g'risidagi qarashlari bayon etilgan. Maqolada oilaviy munosabatlar psixodiagnostikasining o'ziga xos tomonlari haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** Oilaviy munosabatlar, psixodiagnostika, psixologik xizmat, nikoh va oila, dolzarb va perseptiv yo'nalish.

Bizga ma'lumki, jamiyat negizi, davlat taraqqiyoti hamda kelajagi bo'lmish yosh avlod ijtimoiy muhitga, ommaga kirishidan oldin kichik Vatan – oilada o'z shakliga, tarbiyasiga ega bo'lib kamol topadi. Yaniki, oila – jamiyatning bir bo'g'ini va nafaqat bo'g'ini balkim negizi ham sanaladi. Oiladagi munosabatlar esa bevosita davlat taraqqiyoti, rivojiga ta'sir etadi.

Bu haqida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida shunday deyilgan: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" Shu sababli ham oila, uning tuzilishi, oilaviy munosabatlar asrlar o'tsa hamki o'zining dolzarbligini, o'rganishga bo'lgan ehtiyojini yo'qotgani yo'q. Ushbu izlanish ishlari esa Sharq mutafakkir olimlari tomonidan chuqur tahlil etib hanuz o'rganilib kelinmoqda. Chunonchi, Rizouddin ibn Faxruddin, Abu Rayhon Beruniy, Faxr-ul Banot Sibg'atulloh qizi, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abay Qo'nanbayev va boshqalarning asarlaridagi oila va nikoh, oilaviy munosabatlar to'g'risidagi qarashlar aks ettirilgan bo'lib ular hanuz o'z haqiqatini va ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

O'zbek va fors adabiyotidagi eng mashhur asarlardan biri bo'lgan Mir Alisher Navoiy hazratlarining mashxur "Xamsa" asari tarkibidagi doston "Farxod va Shirin"da oilaviy munosabatlar, muhabbat, kasb-hunar egallash va ota-ona bilan farzand qolaversa ustoz hamda shogird o'rtasidagi munosabatlar masalalari psixologik nuqtai nazardan yoritilgan. Bu asar oilaviy munosabatlardagi hissiy va aqliy vaziyatlarni tasvirlaydi, muhabbat, qurbonlik va insoniy ruhiyatning o'zaro

bog‘lanishini namoyish etadi.

Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna) o‘zining tibbiy va falsafiy asarlarida inson ruhiy holati va uning ijtimoiy muhitdagi roli haqida fikr bildirgan. Uning psixologik ta’limotlari, ayniqsa, odamlarning o‘zaro aloqalari va ularning psixologik salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga bag‘ishlangan. “

Al-Farobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ham oilaviy munosabatlarning ahamiyati va uning individning ruhiy holatiga qanday ta’sir etishi haqida tahlillar mavjud. U oilaning ijtimoiy va psixologik ahamiyatiga katta e’tibor qaratgan, oila a’zolari o‘rtasidagi sog‘lom aloqalar kishining ruhiy barqarorligini ta’minlashga yordam berishini ta’kidlagan.

Bu mutafakkirlarning yondashuvlari, o‘sha davr ijtimoiy, madaniy va diniy kontekstlarini ham hisobga olib, oilaviy munosabatlarning psixologik jihatlarini tahlil qilgan. Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O‘zbekiston o‘z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e’zozlashda, deb bilayotgani an’anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy psixologiyadagi eng dolzarb va perseptiv yo‘nalishlardan biri oila va unda sodir bo‘ladigan o‘zarishlarni o‘rganishdan iborat tadqiqotlar hisoblanadi. Tadqiqotchilarning mazkur muammoga bo‘lgan qiziqishi zamonaviy oilalar hayotida sodir bo‘layotgan inqirozli vaziyatlar va ularning jamiyatning boshqa sohalariga ko‘rsatayotgan ta’siri bilan shartlanadi. Hozirgi kunda yoshlar orasida nikoh va oila haqidagi tasavvurlar, oiladagi rollarning taqsimlanishi ma’lum bir o‘zgarishlarga uchramoqda. Oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi yuz berib, oilaviy ajrimlar, nikoh oldi tug’ilishlar va noto‘liq oilalar sonining ortishiga olib kelmoqda. Bunday holatlarning oldini olish va muammoga yechim topishda psixologik yordamning ahamiyati kattadir. Oilalarga psixologik yordam ko‘rsatishda eng dolzarb va muhim masalalardan biri – bu to‘g’ri psixologik diagnostikani amalga oshirishdir.

Oilaviy munosabatlar diagnostikasi oilaviy muammolarni yechishda samarali yo‘l va usullarni aniqlashga yordam beradi. Bunda ko‘pincha oilaning ichki muhitini, muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi yashirin psixologik sabab va qonuniyatlarni ochishga imkon beruvchi test metodikalardan foydalaniladi.

Bugungi kunda psixologiyada nikoh-oila munosabatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator metodikalar mavjuddir. Lekin shunga qaramay, oilaviy konsulьtatsiya sohasidagi eng nozik masala mijozning oila-nikoh munosabatlari to‘g’risida to‘liq, aniq va obyektiv ma’lumot ola bilishdir. Diagnozning aniq qo‘yilishi, korrektsion ishning yo‘nalishini va metodlarni to‘g’ri tanlash, hamda

ko‘rsatilayotgan yordamning samarasi aynan shu ma’lumotga bog’liq bo‘ladi.

Ekspert tizimini ishlab chiqish tajribasi ko‘rsatishicha, psixodiagnostika tizimini yaratish jarayonini 5 bosqichga ajratish mumkin [1]:

1. Muammoni identifikatsiya qilish – bu bosqichda vazifa aniqlashtirib olinadi, muammoga oid bilimlar manbasi topiladi (kitoblar, mutaxassislardan olingan ma’lumot, metodikalar).

2. Kontseptualizatsiya – bu bosqichda olingan bilimlar tizimi shakllantiriladi: asosiy tushunchalar ro‘yxati tuziladi, tushunchalar orasidagi bog’liqliklar, mantiqiy hukmlar ishlab chiqiladi.

Kontseptualizatsiya bosqichi vazifasi bilimlarni norasmiy tarzda tavsiflash bo‘lib, bunda asosiy kontseptsiyalar va tushunchalar o‘rtasida o‘zaro bog’liqliklar grafiklar, jadvallar, diagrammalar ko‘rinishida keltiriladi.

3. Formalizatsiya – bunda o‘rganilayotgan soha kontseptsiyalari shakllantiriladi, mantiqiy metodlar va samarali modellar tanlanadi.

4. Realizatsiya – ekspert tayyorlangan va shakllantirilgan bilimlar bazasini tuzish uchun o‘ziga xos maxsus mahsulot bo‘lishi kerak. bu bosqichning asosiy vazifasi instrumental vositalar orqali dasturiy majmua ishlab chiqishdan iboratdir.

5. Test o‘tkazish – yaratilgan ekspert tizimining ishlashini, hayotiy talablarga javob berishini tekshirish uchun hamda oldingi bosqichlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Oila diagnostikasi – oila tizimini baholash bo‘lib, oila a’zolarida yuz berishi mumkin bo‘lgan somatik yoki nevrotik buzilishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni aniqlashga yordam beradi. Bunda diagnostikaning turli usullar mavjud: proektiv, blankli, o‘yinli va hk. Oila terapiyasida ham turli yo‘nalishlar mavjud bo‘lib (strategik, strukturali, dinamik, xulqiy va hk.), ularning har biri oila diagnostikasi bo‘yicha o‘z uslublariga ega.

Oila diagnostikasida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish muhim ahamiyatga egadir:

- oilaviy munosabatlar muammosining zamonaviy ilmiy va ommabop adabiyotlardagi holatini ko‘rib chiqish;
- nikoh-oila munosabatlari diagnostikasi metodikalarini aniqlashtirish;
- taklif etilgan metodikalarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini, amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berish;
- oilaviy munosabatlar bo‘yicha tadqiqotning nima maqsadda va qanday o‘tkazilishini psixodiagnostik metodikalarni qo‘llagan holda yoritib berish.

Oilaviy munosabatlar fenomenini o‘rganish uchun psixologlar quyidagi metodikalarni tavsiya etishadi: ROP, PEA, “Nizolar” so‘rovnomalari, shuningdek, oilaviy munosabatlar testi (FBT) va T.Liri testi.

Ma’lumki, ko‘pgina metodikalar oilaviy munosabatlar hamda erxotinning

oiladagi rollarini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, unda oʻzaro kutilmalar va intilishlar koʻrsatiladi. Bunday metodikalardan biri sifatida N.V.Volkovaning “Oiladagi rolli kutilmalar va intilishlar” (ROP) metodikasini olish mumkin. Mazkur metodikada bir qator oilaviy qadriyatlar keltirilgan boʻlib, er-xotinning ushbu qadriyatlar tizimiga munosabati, ya’ni ularni amalga oshirishdagi intilishlari va turmush oʻrtog’idan kutishi darajalari aniqlanadi va oʻzaro solishtiriladi. Metodikaning maqsadi:

- Oilaviy hayotda er-xotinning umumiy shaxs xususiyatlari, otaonalik majburiyatlari, jinsiy munosabat, har birining kasbiy qiziqishlari, kundalik xoʻjalik yuritish, axloqiy va emotsional qoʻllab-quvvatlash, juftining tashqi jozibadorligi toʻg’risida er-xotinlarning tasavvurlarini aniqlashtirishdan iborat. Bu koʻrsatkichlar oilaning asosiy funktsiyalarini aks ettirish bilan birga oilaviy qadriyatlar shkalasini (OQSh) tashkil etadi.
- Er-xotinlarning oilada erkak va ayol rollarini taqsimlash haqidagi tasavvurlarini aniqlashdan iborat boʻlib, rolli kutilmalar va intilishlar shkalasida (RKISh) aks etadi.

Shunday qilib, mazkur metodikaning natijalari er va xotinning oilaviy qadriyatlari ierarxiyasini aniqlashga, shuningdek, oilada erxotinning ijtimoiy-psixologik mosligi toʻg’risida xulosa chiqarishga yordam beradi. “Oiladagi rolli kutilmalar va intilishlar” metodikasi ikki variant (erkaklar va ayollar uchun) va har birida 36 ta ta’kiddan iborat boʻlib, 7 ta shkaladan tashkil topgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, metodika oiladagi rolli kutilmalar va intilishlarni aniqlashga qaratilgan boʻlib, bunda rolli kutilma – oiladagi majburiyatlarni turmush oʻrtog’i bajarishini kutish bilan bog’liq erxotinning ustanovkasi boʻlsa, rolli intilish – oilaviy rollarni bajarishda shaxsiy tayyorlik hisoblanadi.

Bundan tashqari, A.N.Volkova tomonidan ishlab chiqilgan PEA soʻrovnomasi boʻlib, bu metodika uch fenomenni: partnerini tushunish, emotsional jozibadorlik hamda turmush oʻrtog’iga nisbatan hurmatni diagnostika qilishga yordam beradi [2; S.14-15]. Metodikaning har bir shkalasi 15 ta savoldan iborat. Tushunish shkalasi mijozning nazarida turmush oʻrtog’ining obrazi qay darajada shakllanganligini aniqlashga yordam beradi. Emotsional jozibadorlik proektiv savollar orqali aniqlanib, turmush oʻrtog’iga nisbatan hissiy munosabatlarini koʻrsatib beradi. Hurmat shkalasi esa turmush oʻrtog’ining koʻzida uning obroʻsi, ahamiyati va referentliligi haqida xulosa chiqarishga yordam beradi.

T.Liri testi ideal turmush oʻrtoq obrazini oʻzaro qanday tushunishlarini diagnostika qilishda foydalaniladi.

FBT – oilaviy munosabatlar testi – proektiv texnika boʻlib, birinchi marta 1936 yilda Xovelьs va Likorish tomonidan tavsiflangan. Unda 40 ta suratdan iborat toʻplam boʻlib, oila a’zolari oʻrtasidagi turli munosabatlar tasvirlangan. Test

shaxsning oila a'zolariga bo'lgan munosabati haqida ma'lumot olishga qaratilgan [3].

Psixologlarning fikricha, sog'lom psixologik barqaror muhitga ega bo'lgan oilani quyidagicha tavsiflash mumkin: oilaviy qadriyatlarning o'xshashligi, rollarning yuqori adekvatligi, hayotning turli jabhalarida nizolarning kam bo'lishi, bir-biriga hurmatning balandligi va emotsional yoqimlilik. Mazkur formula 1982 yilda ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, oilaga psixologik yordam ko'rsatishning eng muhim jihatlaridan biri er-xotinlar ongida o'rnashib olgan ustanovkalarni o'zgartirish bo'lib, hayotiy vaziyatlarga munosib tarzda javob qaytarish usullarini o'rgatishdan iborat, shu jumladan, turmush o'rtog'iga bo'lgan munosabatlarda ham. Er-xotinlarga asosan nizoli vaziyatlarning tabiati va mohiyatini tushuntirish, ularni konstruktiv hal qilishning usullari va yo'llarini ko'rsatib berish kerak. Shunday hayotiy muammolar bo'ladiki, ularni hal qilishning ilojisi bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda ularga nisbatan qarashni o'zgartirish, yoqimsiz taraflarini biroz yumshatkan holda yangidan psixologik idrok etishni o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Trofimova I.N. "Prognozirovanie povedeniya cheloveka kak zadacha ekspertnoy psixodiagnosticheskoy sistemы" / "Voprosы psixologii", 1994, №3.

2. Chalov V.N., Belyalova M.A., Moroz V.A. Diagnostika suprujeskix otnosheniy. Metod.posobie. Krasnodar, 2016. - 198 s.

3. Materialы » Spetsializirovannыe psixologicheskie metodiki diagnostiki vnutrisemeynыx otnosheniy. http://www.psworks.ru

4. Aleshina Yu.E., Gozman L.Ya. Dubovskaya Ye.M. Sotsialьno-psixologicheskie metodы issledovaniya suprujeskix otnosheniy. Spetspraktikum po sotsialьnoy psixologii. - M.: MGU, 1987. - 126s.

5. Isaeva M. OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI //Internauka. – 2020. – №. 23-3. – S. 63-66.

6. Relationship of functional asymmetry with individual psychological features of the personality. The Way of Science International scientific journal, № 4 (86), 2021. ISSN 2311-2158. Impact factor of the journal «The Way of Science» – 0.543 (Global Impact Factor, Australia). P.85-89.

7. Nazarov A. S. Psychological aspects of managerial decision making //Molodoy uchenыy. – 2020. – №. 44. – S. 45-48.

8. Nazarov A. S. Prinyatie upravlencheskix resheniy kak osnovnaya funktsiya sovremennogo menedjera //Voprosы ekonomiki i upravleniya. – 2020. – №. 2. – S. 1-5.

9.Abdullajanova D.S. Socio-psychological features of women's activity in management (on the example of the district kengashs of the Tashkent city) dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on psychological sciences. Tashkent, 2020
10.Режаметова, Н. И. (2024). МОДИФИКАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ И ПРАКТИКЕ ДОШКОЛЬНОЙ МУЗЫКАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 31), 380-382.
11.Rejametova, N. I. (2020). Increasing the effectiveness of the professional competence of music leaders in the formation of children's creativity through Uzbek folk instruments. *Journal of Critical Reviews*, *7*(11), 472-477.
12.Ikramshikovna, R. I., & Nishanbayevich, D. A. (2025). Regulatory and legal aspects of first aid in international legislation and in the republic of Uzbekistan. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, *7*(02), 7-16.
13.Режаметова, И. И., & Норбутаев, С. А. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, *5*(3).
14.Mukhamedova, D. G., & Abdullajanova, D. S. (2020). The actuality of the gender aspect of the manager's constructive interaction in the conflicting situation. *Journal Of Critical Reviews*, *7*(12), 228-231.
15.Akhmadjonova, S., & Abdullajanova, D. (2023). Socio-Psychological Features Of Family Conflict Resolution. In *Academic International Conference On Multi-Disciplinary Studies And Education* (Vol. 1, No. 6, pp. 101-108).
16.Abdullajanova, D., & Raxmonova, Z. (2020). Motivation to succeed, to avoid defeat and the impact of risk preparedness on women's activism and its socio-psychological factors. *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, *7*(1), 3555-3561.
17.Abdullajanova, D. S. (2023). Socio-psychological criteria for the selection and placement of personnel in management (on the example of women). *Confrencea*, *5*(05), 401-411.
18.Abdullajanova, D. S. (2023). Socio-psychological criteria for the selection and placement of personnel in management (on the example of women). *Confrencea*, *5*(05), 401-411.
19.Абдуллажанова, Д. С. (2023). ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В НАПРАВЛЕНИИ ЖЕНСКОЙ АКТИВНОСТИ В УПРАВЛЕНИИ. *ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ*.
20.Мухамедова, Д. Г., & Абдуллажанова, Д. С. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КАДРОВОГО РЕЗЕРВА: ФОРМЫ И МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ. *BEING A MUSIC FAN: FANDOM EFFECTS ON THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF ITS PARTICIPANTS.....................* *12*, 187.
21.Абдулладжанова, Н. Г., Абдугафурова, Д. Г., Якубова, Р. А., Назирова, Э.

Р., & Рахмонова, Г. Г. (2020). ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ. *Universum: химия и биология*, (12-1 (78)), 80-84.

22.Kadirov, K. B., Mullabaeva, N. M., Abdullajanova, D. S., Kurbanovna, A. D., & Abdullaevna, B. S. (2023). A Mobbing Questionnaire In School And An Analysis Of The Results Obtained. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, *23*(4).

23.Abdullajanova, D. S. (2025). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MOTIVATION FOR SUCCESS AND THE IMPACT OF RISK ON WOMEN. *Modern education and development*, *19*(1), 3-12.

24.Абдуллажанова, Д. (2024). Социальная критерия как фактор формирования психологического портрета женщин-руководителей в управленческой деятельности. *Общество и инновации*, *5*(5), 85-93.

25.Abdullajonova, D. S. (2024). Social-Psychological Adaptation to the Educational Environment-As a Factor of Educational Efficiency. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(4), 58-60.

26.Abdullajonova, D. (2024). Sand in the image of relatives to establish education in the national spirit through races. *Science and innovation*, *3*(B2), 34-39.

27.Abdullajanova, D., & Raxmonova, Z. (2020). Motivation to succeed, to avoid defeat and the impact of risk preparedness on women's activism and its socio-psychological factors. *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, *7*(1), 3555-3561.

28.Dilnozakhan, A., & Dilfuza, J. (2023). Problems of adaptation of children of primary school age to school and methods of their elimination. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(2), 295-300.

29.Mukhamedova, D., Abdullajanova, D., Tukhtabekov, K., Fuzailova, G., Babadjanova, S., & Rahmonova, Z. (2019). The main directions of accounting socio-psychological characteristics of the manager of education in the process of optimizing management activities in Uzbekistan. *Journal Of Advanced Research In Dynamical And Control Systems*, *11*(10 Special Issue), 1035-1038.

30.Abdullajonova, D. (2025). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MOTIVATION FOR SUCCESS AND THE IMPACT OF RISK ON WOMEN. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 5(1), 10-16. извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/10516

31.Abdulakimovna, S. S. (2024). Methods for Developing Cooperation Between the Family, Neighborhood, Educational Institution in the Socialization of Adolescents with Disabilities. *Journal of Diplomacy, Law, and International Affairs*, *1*(1), 6-8.

32.Шакарбоева, Ш. А. (2024). МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ, СОСЕДСТВА, ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ЗАВЕДЕНИЯ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРОСТКОВ С ТРУДНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ. *International Journal of Formal Education*, *3*(4), 211-215.

33.Shakarboeva, S., & Gulomitdinov, D. (2023). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL VIEWS OF ABU RAIKHAN BERUNI AS A FACTOR OF

EFFECTIVENESS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *World Bulletin of Management and Law*, *21*, 30-33.
34.Shakarboyeva, S., & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *4*(1), 148-154.
35.Мунарова, Р. У., Камолова, Ш. У., Шакарбоева, Ш. А., & Каршибоева, Д. Б. (2016). Алимкулов СОУ Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения. *Проблемы педагогики*, (2), 13.
36.Шакарбоева, Ш. (2024). Бошланғич синфларда чет тили ўзлаштириш ва ўрганишнинг ёшга оид хусусиятлари. *Общество и инновации*, *5*(10/S), 286-290.
37.Abdulakimovna, S. S. (2021). Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, *1*(5), 231-235.
38.Usarovna, K. S., Muhammedovna, Y. F., Shodiyevna, O. D., & Shakhnoza, S. (2022). The Importance of Cognitive Processes in the Formation of a Scientific Worldview among Students. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, *2*(2), 78-83.
39.Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).
40.Мунарова, Р. У. (2016). Камолова Ширин Усаровна, Шакарбоева Шахноза Абдулакимовна, Каршибоева Дилфуза Бурлиевна, & Алимкулов Сирожиддин Олимжон ўғли (2016). *Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения. Проблемы педагогики,(2 (13))*, 17-19.
41.Abdulakimovna, S. S. (2021). Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, *1*(5), 231-235.
42.Munarova, R. U. (2016). Kamolova Sh. *U., Shakarboeva Sh. A., Karshiboeva DB, Alimkulov SOU (2016) Velikie misliteli Sredney Azii o vospitanii garmonichnogo i vsestoronne razvitogo pokoleniya. Problemi pedagogiki,(2)*, *13*.
43.Shakarboeva, S. A. (2024). METHODS OF DEVELOPING COOPERATION OF THE FAMILY, NEIGHBORHOOD, AND EDUCATIONAL INSTITUTION IN THE SOCIALIZATION OF TEENAGERS WITH DIFFICULT EDUCATION. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *3*(5), 920–924. Retrieved from https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2409
44.Shakarboeva Shakhnoza Abdulakimovna. (2022). Social-Psychological Characteristics Of Professional SelfDevelopment Of Future Teachers. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, *14*, 138–140. Retrieved from https://www.zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/2799

45. Shakarboyeva, S., & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *4*(1), 148-154.
46.Ruzieva, D. I., Rustamova, N. R., Sunnatovich, D., &Tursunov, A. J. K. (2020).The Technology of Developing Media Culture in Higher Educational Students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(09).
47.Акчаев, Ф. Ш., &Турсунов, Д. С. (2016). Трансформация святыни" Парпиойим" или Умай-она. *Социально-экономические науки и гуманитарные исследования*, (14), 143-146.
48.Qizi, T. I. A., &Diyor, T. (2023). “UNIVERSITET 3.0”–XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINING O ‘RNI: KONSEPSIYAGA BOSQICHMA-BOSQICH O ‘TISH VA METODLARNI O ‘RGANISH. *Scienceandinnovation*, *2* (SpecialIssue 14), 159-161.
49.Sunnatovich, T. D., &Ismatovna, R. K. (2023).BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA FANLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Tafakkurmanzili*, *4*, 91-97.
Sunnatovich, T. D. (2024). OLIY TA’LIM MUASSASALARI 50.TALABALARINING IMIJINI YARATISH IMKONIYATLARINI OCHIB BERISH. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, *1*(1), 194-196.
51.Boltaboev, A., Mamarakhimov, O., Islamov, A., Kuchkarov, T., &Tursunov, D. (2024). Study on fauna, biology and ecology of Miridae (Hemiptera-Heteroptera) in agro-biocenosis and natural ecosystems of Uzbekistan. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 149, p. 01064).EDP Sciences.
52.Sunnatovich, T. D., &Ismatovna, R. K. (2023).BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA FANLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Tafakkurmanzili*, *4*, 91-97.
53.Sunnatovich, T. D. (2022). TA’LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING O ‘RNI VA AHAMIYATI. *ko ‘nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy*, 406.
54.Турсунов, Д. С. (2017). МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИ ЎРГАНИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ УМУММАДАНИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 32, pp. 62-65). Общество с ограниченной ответственностью Научно-издательский центр" Социосфера".
55.Tursunov, D. S. (2017).Opportunities of Implementing National Heritage in Forming General Cultural Competence of Students. *Eastern European Scientific Journal*, (5), 137-140.